



## Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi



# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI


2022- YILNING  
YANVAR OYIDA



**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar**

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdag'i vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qildi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tash-kilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **689,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **139,7** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,5 %** ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



**Dastlabki ma'lumotlar**


**2022- yil yanvar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar oyida)	Hajmi, mldr. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>689,0</b>	<b>118,5</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	41,5	114,8
Moliyaviy xizmatlar	155,2	130,5
Transport xizmatlari	180,2	139,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	82,8	105,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	16,7	99,3
Savdo xizmatlari	149,1	104,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	17,3	107,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	27,2	133,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	9,1	102,8
Ijara xizmatlari	14,2	60,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	21,4	108,1
Shaxsiy xizmatlar	27,5	107,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	7,3	111,6
Boshqa xizmatlar	22,3	116,6

*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar oyida bu xizmatlarning ulushi **26,2 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**22,5 %**), savdo xizmatlari (**21,6 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**6,0 %**) bo'yicha qayd etildi.

## *Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar*

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo'limgan o'sish qayd etildi, ularning ulushi **1,1 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar oyida transport xizmatlari umumiyligi hajmning **22,6 %** ini tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,1 %**.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.




2022- yil yanvar oyida yuqori o'sish transport xizmatlarida (**39,7 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**33,3 %**), moliya xizmatlarida (**30,5 %**), boshqa xizmatlarda (**16,6 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**14,8 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlarida (**11,6 %**) qayd etildi.

Ijara xizmatlari hajmi sezilarli darajada (**40,0 %** ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yasash va ovqatlanish xizmatlari (**0,7 %** ga) pasayishi kuzatildi..

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da**



**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar oyida ijara xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – 197,4 %. Transport xizmatlari o'sish sur'atlarida pasayish kuzatilgan – 8,8 %.

*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar*



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **21,6 %** ni tashkil etib, bu **149,1 mld. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar oyida ularning hajmi **129,7 mld. so'mga** yoki umumiylajmning **23,6 %** iga to'g'ri kelgan.

## **Savdo xizmatlari**



*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar*

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i, **78,0 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **14,6 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**7,4 %**) tashkil etdi.

## **Savdo xizmatlarining tarkibi (2022- yilning yanvar oyida)**



*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar*



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## **Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar oyida)**

2022- yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi **155,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar oyida ularning hajmi **118,5** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiylar hajmidagi ulushi **22,5 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar oyida ularning ulushi **21,6 %** ni ashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **36,7** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **30,5 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar oyida ularning o'sish sur'ati **115,3 %** ni tashkil etgan.



## *Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar*

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,3 %** ni tashkil etdi.


2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,9 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **1,8 %** ni tashkil etdi.

### **Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar oyida)**

**Sug'urta va nafaqa  
ta'minoti bo'yicha  
xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi  
moliyaviy  
faoliyat**



**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **93,6 %** ni sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,8 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,6 %**.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar**



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekomunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

**2021- y. yanvar**

**2022- y. yanvar**

**35,7**

**111,4**

**6,5**

**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati,  
% da**

**Jami hajmdagi  
ulushi, % da**

**41,5**

**114,8**

**6,0**


*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar*


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar oyida ularning ulushi **95,2 %** ni tashkil etdi.

## **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da**

*2021-y. yanvar*



*2022-y. yanvar*



 **Telekommunikatsiya xizmatlari**

 **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

 **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

 **Noshirlik xizmatlari**

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar oyida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,5 %** ni tashkil etgan.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar**



Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lif va fan sohasini** rivojlantirish – uzlusiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### **Ta'lif sohasidagi xizmatlar**

**2022- y. yanvar**

**133,3 %**

O'tgan yilga  
nisbatan o'sish  
sur'atlari

**27,2  
mlrd. so'm**

**4,0 %**

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari  
hajmi

**107,7 %**

**2021- y. yanvar**

**3,4 %**

**18,7  
mlrd. so'm**

Umumiyligi  
hajmdagi ulushi

2022- yilning yanvar oyida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **27,2 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiyligi **4,0 %** ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **133,3 %** ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar*



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatolo-giya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetolo-giya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

## **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**

**2021- y.  
yanvar**

**2022- y.  
yanvar**

**Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm**

**7,5**

**9,1**

**1,4**

**1,3**

**101,1**

**102,8**

**Xizmatlar jami hajmidagi  
ulushi, % da**

**O'sish sur'ati, % da**



*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar*



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

**14,1**

**Xizmatlar  
hajmi, mlrd.  
so'm**

**105,0**

**O'sish sur'ati, % da**

**2,6**

**Xizmatlar jami  
hajmidagi ulushi,  
% da**

**2021- y.  
Yanvar**

**16,7**

**99,3**

**2,4**

**2022- y.  
Yanvar**


*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar*

2021-yil yanvar oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **2,6** mlrd. so'mga ko'paydi.


### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da**

**2021- y.  
yanvar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar**

**2022- y.  
yanvar**



**Yashash bo'yicha  
xizmatlar**

2022- yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,4** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar oyida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,5** % ni tashkil etgan.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar**

<b>Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar oyida)</b>	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	
		<b>2022- y.</b>	<b>2021- y.</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>689,0</b>	<b>118,5</b>	<b>104,4</b>
Nukus sh.	272,0	113,3	110,3
tumanlar:			
Amudaryo	37,5	111,6	107,3
Beruniy	39,4	108,9	106,8
Bo'zatov	3,1	113,6	116,4
Qorao'zak	11,3	116,4	103,9
Kegeyli	11,8	115,7	105,5
Qo'ng'iroq	109,7	169,9	82,3
Qonliko'l	10,0	114,9	102,8
Mo'ynoq	6,6	119,7	105,2
Nukus t.	11,2	111,1	106,8
Taxiatosh	14,1	112,9	100,1
Taxtako'pir	8,3	114,2	105,0
To'rtko'l	61,4	108,9	107,7
Xo'jayli	29,6	108,2	105,0
Chimboy	20,8	118,2	104,5
Shumanay	9,1	109,4	105,9
Ellikqal'a	33,1	108,2	107,2


**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da  
(2022- yil yanvar oyida)**



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumanida – 0,5 % (2021- yilning yanvar oyida – 0,5 %) qayd etildi.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar**



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## **Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari**

### **Xizmatlar hajmi**

**355,9  
ming so'm**



### **Hajmning o'sishi**

**68,5  
ming so'mga**

**117,0 %**

### **O'sish sur'ati**

2022- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **355,9** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **117,0 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**

2021- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **287,4** ming so'mni tashkil etган.

2021- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **102,9 %** da qayd etilgan.